



## SAYFI SAROYI IJODINING O'ZBEK ADABIYOTI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

*Toshmamatova Bahora Nizomiy nomidagi O'zMPU Filologiya fakulteti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.*

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada Sayfi Saroyi hayoti va ijodiy faoliyati tarixiy-adabiy manbalar asosida kompleks tahlil qilinib, uning turkiy adabiyot taraqqiyotidagi o'rni, tarjimonlik mahorati hamda badiiy-estetik qarashlari ilmiy jihatdan yoritiladi.

**ABSTRACT:** Ushbu maqola XIV asr turkiy adabiyotining yirik namoyandasi Sayfi Saroyi hayoti va ijodiy faoliyatini yoritishga bag'ishlangan. Tadqiqotda shoirning tarjimon va adib sifatidagi o'rni, yashab ijod qilgan tarixiy-madaniy muhit hamda uning ijodiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy omillar tahlil qilinadi. Maqolada Sayfi Saroyi hayotining asosiy bosqichlari, xususan, Xorazm, Saroy, Misr va Turkiya bilan bog'liq faoliyati manbalar asosida yoritilib, "Guliston bit-turkiy" asarining turkiy adabiyot taraqqiyotidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, shoir ijodida vatan sog'inchi va davr fojealarining aks etishi ilmiy jihatdan baholanadi.

**Kalit so'zlar:** Sayfi Saroyi, XIV asr turkiy adabiyoti, tarjimonlik, "Guliston bit-turkiy", Saroy shahri, Oltin O'rda, axloqiy-didaktik g'oyalar, adabiy muhit.

### **KIRISH:**

XIV asr turkiy adabiyoti Sharq madaniy-ma'naviy taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, mazkur davr adabiy jarayonlari ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, tarixiy siljishlar hamda madaniyatlararo aloqalar bilan uzviy bog'liq holda rivojlandi. Ayniqsa, mo'g'ullar istilosidan keyingi davrda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda shakllangan adabiy muhit turkiy yozma adabiyotning yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi. Ana shunday murakkab va ziddiyatli tarixiy sharoitda yashab ijod qilgan adiblardan biri Sayfi Saroyi bo'lib, u turkiy adabiyot tarixida shoir va tarjimon sifatida muhim mavqega ega.



Sayfi Saroyi 1321 yilda Xorazm vohasidagi Qamishli hududida tavallud topgan bo'lib, dastlabki ta'lim-tarbiyasini shu yerda olgani manbalarda qayd etiladi. Ilm va ma'rifatga bo'lgan intilish uni XIV asrda yirik siyosiy va madaniy markazlardan biri hisoblangan Saroy shahriga yetakladi. Oltin O'rda davlatining poytaxti bo'lgan Saroy shahri o'sha davrda nafaqat siyosiy, balki ilmiy-intellektual markaz sifatida ham tanilgan. Bu yerda turli mintaqalardan kelgan olimlar, faqihlar, mutafakkirlar va shoirlar faoliyat yuritgan bo'lib, bunday ko'p qatlamli madaniy muhit Sayfi Saroyining dunyoqarashi va ijodiy shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Sayfi Saroyi yashab ijod qilgan davr O'zbekxon o'g'illari — Tiniбек va Jонибеклар hukmronligi bilan bog'liq bo'lib, bu davrda siyosiy beqarorlik, ijtimoiy tanglik va migratsiya jarayonlari kuchaygan edi. Mazkur tarixiy vaziyat ko'plab ijodkorlarning vatanni tark etib, boshqa hududlarda yashab ijod qilishiga sabab bo'ldi. Sayfi Saroyi ijodida musofirlik, vatandan ayrilish fojeasi, falakdan shikoyat va insoniy iztirob motivlarining yetakchi mavzuga aylanishi ana shu tarixiy-iqtisodiy omillar bilan izohlanadi. Shoir lirikasida aks etgan bu kayfiyatlar uning asarlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan muhim manba sifatida baholash imkonini beradi.

Sayfi Saroyi ijodiy merosining eng yirik yodgorligi “Guliston bit-turkiy” asari bo'lib, mazkur asar fors-tojik adabiyotining buyuk namoyandasi Sa'diy Sheroziyning “Guliston” asarining ijodiy tarjimasidir. Ushbu asar tarjima jarayonida so'zma-so'z yondashuvdan ko'ra, erkin va ijodiy talqin ustuvor bo'lganligi bilan ajralib turadi. Sayfi Saroyi tarjima davomida turkiy tilning semantik va stilistik imkoniyatlarini keng namoyon etib, xalqona leksika, maqol va hikmatli iboralardan mahorat bilan foydalangan. Natijada, “Guliston bit-turkiy” nafaqat tarjima asari, balki mustaqil badiiy-estetik qiymatga ega yodgorlik sifatida turkiy adabiyot tarixidan mustahkam o'rin egalladi.

Shu jihatdan, Sayfi Saroyi ijodi turkiy tarjimachilik an'alarining shakllanishida muhim bosqich bo'lib, uning adabiy merosi keyingi davr adiblari, xususan, Alisher Navoiy ijodiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan deb baholanadi. Sayfi Saroyi asarlarida ilgari surilgan axloqiy-didaktik g'oyalar, insonparvarlik



tamoyillari va estetik qarashlar Sharq adabiy tafakkurining uzviy davomi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, Sayfi Saroyi Movarounnahrda, Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroy shahrida yashab ijod qilgan. U shuningdek, Misr va Turkiya hududlarida ham faoliyat yuritgan. “Guliston bit-turkiy” asaridagi quyidagi misralar shoirning Misr maliklaridan biriga xizmat qilganini, qarilik yoki zaiflashganligi sababli o‘z vataniga qaytish uchun malikka ruxsat so‘raganini ko‘rsatadi:

Ilohiy bu qari miskin qulingni,  
Bag‘ishla, ko‘rguzub to‘g‘ri yo‘lingni.  
Maliklar rasmidur dilshod qilmoq,  
Qarisa qullarin ozod qilmoq.  
Qari yorli quling Sayfi Saroyi,  
Faqiru benavo lutfing gadoyi.  
Ani lutfing bilan dilshod qilg‘il,  
Bag‘ishlab yozuqin ozod qilg‘il.

Adib taxminan 1396-yilda vafot etgan. Sayfi Saroyi o‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyos bo‘lib, undan bizgacha bir qator g‘azal, qasida, qit‘a va ruboiylar, shuningdek, “Suhayl va Guldursun” dostoni, “Sinbondnoma” va “Guliston” kabi asarlarning erkin tarjimalari yetib kelgan. Bundan tashqari, Sa‘diy “Guliston” asarining tarjimasiga kiritilgan original she‘riy parchalar va masnaviylar ham Sayfi Saroyining ijodiy merosiga mansubdir.

Shoir g‘azallarida shakl va mazmun uyg‘unligini birinchi o‘ringa qo‘ygan. Uning “Shoirlar ta‘rifida” nomli masnaviy asarida esa ijodkorlarga nisbatan talabchan va tanqidiy munosabat aniq ifodalangan:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog‘,  
Kimi bulbuldurur so‘zda, kimi zog‘.  
Kimi to‘ti tegin chaynar shakarni,  
Kimi lafzi bilan o‘rtar durarni.  
Kimining so‘zlari mavzunu shirin,  
Kimining loyiqi ta‘rifi tahsin.



Kimi o'zganij ash'orin menim der,  
Kimi hayvon kabi shalg'am cho'pin yer.  
Kimi ma'ni tuzub vaznin tuzotur,  
Kimi vaznin buzub san'at kuzotur.

Sayfi Saroyining ijodi haqida so'z borganda "Gulistoni bit-turkiy" asari birinchi tilga olinadi. Shoir fors shoiri va mutafakkiri Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarini ijodiy tarzda turkiy tarjima qiladi. Ushbu tarjima orqali shoir mumtoz adabiyotimiz tarixida munosib o'rin oladi. Lekin mana shunday ijodiy tarjima ilm ahliga ancha yillar o'tib yetib boradi. "Gulistoni bit-turkiy" asari (ya'ni "Turkiy guliston") yozilganiga uzoq muddat o'tgan bo'lsa-da ilm ahli 1915-yilda tanishadi. 1915-yili Turkiyada nashr qilinadigan "Milliy tatabbular majmuasi" jurnalida venger olimi Tori Yozef Sa'diy "Guliston"ining turkiy tilga eski bir tajimasi Gollandiyadan topilgani to'g'risida xabar beradi. 1950-yili Amsterdamda tibbiyot tarixiga oid Xalqaro anjumanda ishtirok etgan professor Faridun Nafiz Uzluk Leyden universiteti kutubxonasida mazkur qo'lyozma bilan tanishib, fotonusxasini oladi va 1954-yili Anqarada kichik kirish so'z bilan qo'lyozmaning faksimilesini nashr ettiradi. Qo'lyozma yaxshi saqlangan, ammo xatolari ko'p. Faridun Nafiz Uzlukning aytishicha, qo'lyozma Sayfi Saroyining dastxatidir. Qo'lyozmaning birinchi sahifasida forscha va turkiyeha yettita she'r bor. She'rlaming mualliflari ham, dastxatlari ham har xil. Birinchi to'rtlik Mahmud Gulistoni degan shoirniki bo'lib, Iroqdan mag'lubiyatga uchrab qochib kelgan shahzoda Ahmadga bag'ishlangan.

## **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Sayfi Saroyi XIV asr turkiy adabiyotining muhim namoyandasi bo'lib, o'z davrining siyosiy va ijtimoiy sharoitlariga qaramay, adabiy faoliyatini muvaffaqiyat bilan davom ettirgan. U Movarounnahr, Oltin O'rda, Misr va Turkiya kabi mintaqalarda yashab ijod qilgan bo'lib, shoir va tarjimon sifatida o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan.

Sayfi Saroyining ijodida shakl va mazmun uyg'unligi, badiiy tasvir vositalarining boyligi, tarjima va moslashtirishdagi ijodiy yondashuvi alohida ajralib



turadi. Uning “Guliston bit-turkiy” kabi asarlari turkiy adabiyot tarixida tarjima maktabi va badiiy estetik rivojlanishining muhim namunasi sifatida baholanadi. Shuningdek, shoirning g‘azal, qasida, qit‘a, ruboiy va masnaviy asarlari, hamda original she‘riy parchalar orqali yetkazilgan axloqiy va didaktik g‘oyalar, insonparvarlik tamoyillari va vatanparvarlik kayfiyati keyingi avlod adiblari, xususan, Alisher Navoiy ijodiga ta’sir ko‘rsatgan.

Shu bilan birga, Sayfi Saroyining ijodi nafaqat badiiy meros, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy manba sifatida ham qadrlil bo‘lib, o‘zbek adabiyotining boy va boyituvchi qatlamlaridan biri sifatida qadrlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarimigacha). – Toshkent: Sano-standart, 2017.
2. Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrdan XVI asrning oxirigacha). – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
3. Sayfi Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Nasharga tayyorlovchi Nasrullo Davron. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
4. Ziyouz.com internet sayti
5. Asarlar.uz internet sayti